



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

G.Yu.Smaylova

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish, integratsiya ta'riflari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsion texnologiyalar, pedagogik jarayon, o'zgarish, yangilik, integratsiya ta'riflari.*

Abstract: *In this article, information is given about the definitions of innovative technologies, pedagogical processes, innovation, changes, and integration of teacher and student activities.*

Keywords: *innovative technologies; pedagogical process; change; innovation; definitions of integration.*

Аннотация: *В данной статье дана информация об определениях инновационных технологий, педагогического процесса, инновации, изменений, интеграции деятельности учителя и ученика.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, педагогический процесс, изменение, инновация, определение интеграции.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi- talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv metodlardan foydalaniladi.

Innovatsiyalarni ta'lim jarayonlarida qo'llash juda kata imkoniyatlarni bizga ochib beradi. Biz innovatsiyalarni ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash orqali o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda ularga amaliy qo'llab ko'rish imkoniyatini yaratib beramiz ular nafaqat ularni o'rganadi balki o'zlari ham o'rgangan narsalari orqali biror bir yangilik kiritishni o'rganib o'zlari biz o'rgatgan narsalarga qo'shimcha tarzda kirita olishni



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'rganadilar. Davlatimiz tomonidan ham bugungi kunda juda kata o'zgarishlar amalga oshirimoqda.

O'quvchilarga maktab ta'limida turli xil innovatsiyalardan foydalangan holda yangilik kiritib turli interfaol metodlar, pedagogic texnologiyalar, didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarga darsni kreativ tarzda o'tishni va shu vositalar orqali o'quvchilarga mavzularni oson yetkazib berish uchun juda kata imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovation"-yangilik kiritish,ixtiro) ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllanirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi.

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borish;
- bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo'lishi;
- dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;
- imkoni bo'lsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi;
- o'z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.
- O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin.

O'qituvchining ijodkorligi nafaqat dars jarayonlarida qolaversa, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ijodiy to'garaklar faoliyatida, ma'naviy-marifiy tadbirlarda takomillashib boradi. Bu ayniqsa ijtimoiy- gumanitar fan sohasida faoliyat yuritayongan pedagoglarning mahoratida o'z aksini topadi. Masalan, Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish – sinfdan tashqari ishlarning muhim tashkiliy shakli bo'lib, ularning asosiy vazifasida ilmiy ma'lumot berishdan tashqari harxil san'at vositalari (badiiy o'qish, musiqa, ashula, video rolik) yordamida o'quvchilarga ibratli tarixiy voqyealarning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini tushuntirish va ulardan ibrat olishni uqtirishdan iborat. O'qituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, ulkan natijalarga erishadi, o'z ishining natijasi bilan mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Darslarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanishga doir ushbu maqola bilan, darslarni samarali tashkil etish uchun foydalaniladigan metod va o'yinlardan har bir fan o'qituvchisi dars jarayonida foydalanish imkoniga ega. O'qituvchi izlanuvchan, ijodkor, fanini puxta biladigan va shu fani orqali o'quvchilarga bugungi kun davr talabi asosida innovatsion g'oyalarga tayanib bilim bersa, bu o'sha o'qituvchining o'quvchilar hamda otionalarning e'tiborini qozonishiga sabab bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikrlar asosida barcha darslarda ham o'quvchilarga ko'plab ma'lumotlarni singdirish orqali ularni bilim



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



olishga, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini ham orttirish mumkin. Buning uchun albatta o'quvchilarga fanga oid zamonaviy texnika va texnologiyalar haqida ko'proq tushunchalarni singdirish lozim. Xulosa o'rnida aytib o'tish joizki, maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. innovatsion texnologiya – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda o'quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent 2011-yil.
2. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogi mahorat. Darslik. Toshkent 2009-yil.
3. Xoliqov I. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida pedagogik kompetensiyani shakllantirish. Pedagogik mahorat. 1-son. 2022-yil

